

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raising birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzayevning 2022-yil 1-chorakda
bajarilgan ishlari

Byudjet daromadlari ijrosini ta‘minlash
va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

Davlat byudjetiga 2022 yilning I choragi uchun 33,2 trln.so‘m belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari 34,5 trln.so‘mga (104,9%) bajarilib, byudjetga 1,3 trln.so‘m qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 trln.so‘mga (117,6%) o‘sd).

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha 2022 yilning I choragi uchun belgilangan 7,1 trln.so‘m prognoz 7,5 trln.so‘mga yoki 448,8 mlrd.so‘m (106,3%) ortig‘i bilan bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 28 apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Alkogol, tamaki va pivo mahsulotlarni to‘liq raqamli markirovkalangan holda ishlab chiqarilishi ta‘minlanib, ishlab chiqaruvchi (51 ta alkogol, 2 ta tamaki va 16 ta pivo) va import qiluvchi (8 ta alkogol, 4 ta tamaki va 6 ta pivo) korxonalar tomonidan jami 1 137,1 mln. dona (615,0 mln. dona – tamaki, 334,5 mln. dona – alkogol va 177,5 mln. dona pivo) raqamli markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqarilishi nazoratga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-178-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 apreldagi “Maishiy texnika mahsulotlarini majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 148-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 apreldagi “Dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 149-son qarori qabul qilindi.

Xavfni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash bo‘yicha

Soliq xavflarini boshqarish bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish va tayinlash, intizomli va shubhali korxonalar ro‘yxatini avtomatik shakllantirish kabi funksiyalari mavjud, boshqa dasturlar bilan integratsiya qilingan Soliq xavflarini boshqarish (CRM)-tizimi ishlab chiqildi va taqdimot qilindi.

“Tahlil tahlil” dasturi orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati tahlil qilinib, 4 802 ta holatda 1,8 trln.so‘m soliq xavfi aniqlandi va nazorat tadbirlarini amalga oshirish belgilab olindi. Shu bilan birga 144 ta xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati intizomli deb topilib, ularni ro‘yxati Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

Chorak davomida jami 128 ta 230,4 mlrd. so‘mlik soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, 29 ta (23 %) 27,0 mlrd. so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 80 ta (64 %) 47,4 mlrd. so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi hamda qolgan murojaatlar bo‘yicha o‘rganish davom etmoqda.